



# SIRDARYO VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI BUYRUG‘I

30 oktabr 2023 yil.

01-07/191-son

## **O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 27 oktabrdagi 190-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 27 oktabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlarida xizmat tekshiruvi va xizmat o‘rganishi o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 190-sonli buyrug‘i ijrosini tashkil etish maqsadida,

### **B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27 oktabrdagi 190-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Komplaens nazorat bosh mutaxassisi (U.Xaydarov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (I.Tojiboev), Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Sirdaryo viloyati filiali (S.Israilov), tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari, Guliston “Ishga marhamat” monomarkazi, Sayxunobod, Oqoltin va Xovos tumani kasb-hunarga o‘qitish markazlari rahbarlariga;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27 oktabrdagi 190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan nizom barcha rahbar va xodimlarga tanishtirilsin.

O‘tkaziladigan xizmat tekshiruvi va xizmat o‘rganishilari Nizom talablari asosida olib borilsin.

Xizmat tekshiruvi va xizmat o‘rganishi natijasiga ko‘ra, xodimlarning javobgarligi masalasi adolatli va xolisona hal etilsin.

O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq shaxsga oid hamda xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlarni oshkor etmaslik, tarqatilishini oldini olish maqsadida xizmat tekshiruvi xulosasi va o‘rganish ma‘lumotnomasi hamda ish jildidagi mavjud hujjatlardan nusxa olinishiga yoki boshqacha usulda berilishiga yo‘l qo‘yilmasligi nazoratga olinsin.

Xizmat tekshiruvi xulosasi “xizmat doirasida foydalanish uchun” mo‘ljallangan hujjat hisoblanib, xizmat tekshiruvi xulosasi va to‘plangan hujjatlar vakolatiga kirmagan hamda taalluqli bo‘lmagan shaxslarga tanishtirilmasligi ta’minlasin.

**3.** Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Bosh boshqarma boshlig‘i**



**B.Quvondiqov**